

**O'QUVCHILARNING YOZMA ISHLARDAGI XATOLARINI
TAHLIL QILISH VA BARTARAF ETISH YO'LLARI**

Nomozova Begoyim Tursun qizi

ToshDO TAUning 3-kurs talabasi

[*begoyinnamozova459@gmail.com*](mailto:begoyinnamozova459@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'l'm maktab o'quvchilarining yozma ishlarida uchraydigan xatolar, ularning kelib chiqish sabablari va bu xatolarni aniqlash hamda tuzatish usullari yoritiladi. Shuningdek, yozma savodxonlikni oshirish bo'yicha samarali metod va tavsiyalar keltirilgan.

Abstract: This article discusses errors that occur in the written work of secondary school students, their causes, and methods for identifying and correcting these errors. It also presents effective methods and recommendations for improving written literacy.

Kalit so'zlar: yozma ish, xatolik, savodxonlik, tahlil, tuzatish, metodika.

Keywords: written work, error, literacy, analysis, correction, methodology.

Kirish

Yozma nutq – shaxsning fikrlash darajasi, til imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyati hamda muloqot madaniyatining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Bugungi kunda umumta'l'm maktablarida ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda asosiy maqsad o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, ularda aniq, lo'nda va mantiqiy fikrlay olish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Ammo amaliy kuzatuvlar va nazorat yozma ishlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilar orasida grammatik, uslubiy, orfografik va punktuatsion xatolar keng uchraydi. Bunday holat til o'rgatishdagi metodik yondashuvlarni tahlil qilish va zamonaviy ta'l'm texnologiyalarini qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi. Tafakkur qancha rivojlantirilsa, o'quvchining fikr

bayon qilish mahorati ham shuncha yuqori bo'ladi¹.

Yozma ishlar o'qituvchi uchun nafaqat o'quvchining bilim darajasini aniqlash vositasi, balki ularning fikr yuritish, mantiqiy ketma-ketlikda gap tuzish, til qoidalarini amalda qo'llay olish salohiyatini baholash mezonidir. Shuning uchun yozma ishlar ustida tizimli ishlash, undagi xatolarni chuqur tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha metodik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzARB masala hisoblanadi. Quyida yozma ishlarda yuzaga keltiradigan sabablar va ularni oldini olish bo'yicha bir nechta tavsiyalar beriladi.

1. O'quvchilarning yozma ishlaridagi xatolarni tasniflash

Yozma ishlar tahlili o'quvchilarning tilni egallash darajasini aniqlash imkonini beradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yozma ishlar quyidagi asosiy xatolik guruhlari asosida baholanadi:

Orfografik xatolar – so'zlarni imlo qoidalariga zid tarzda yozish.

Punktuatsion xatolar – tinish belgilarining joyida qo'llanmasligi.

Leksik xatolar – so'zlearning ma'nosini noto'g'ri tushunib qo'llash.

Sintaktik xatolar – gap qurilishi yoki bog'lovchilarning noto'g'ri ishlatilishi.

Uslubiy va mantiqiy xatolar – fikrning izchilligi va silliqligiga putur yetkazuvchi holatlar.

2. Xatolarning kelib chiqish sabablari

Xatolarni to'g'ri baholash va ularning ildiz sabablari aniqlanmaguncha samarali tuzatish usullarini ishlab chiqish qiyin. Asosiy sabablar quyidagilardir:

Darsda nazariy bilimning amaliy mashqlar bilan mustahkamlanmasligi;

Mustaqil fikrlashga yetarlicha e'tibor berilmamasligi;

O'quituvchining baholash tizimi faqat natijaga emas, jarayonga yo'naltirilmaganligi;

O'quvchilarda yozma savodxonlik madaniyatining shakllanmaganligi.

3. Xatolarni aniqlash va bartaraf etishda metodik yondashuvlar

O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda an'anaviy va zamonaviy

¹ D.N. Yuldasheva. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi". – Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti, 2021. – 424 b. 369-bet.

metodlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida samarali metodlardan ayrimlari keltiriladi:

a) Differensial yondashuv

Har bir o'quvchining bilim darajasi va xato qilishga moyilligi turlicha bo'lganligi sababli individual yondashuv muhim. Shu sababli:

Kuchli o'quvchilarga erkin mavzuda insholar;

O'rtacha o'quvchilarga tuzilmasi berilgan matnlar asosida yozuv ishlari;

Past darajadagilarga esa tayyor matn asosida xatolarni topish va tuzatish mashqlari tavsiya etiladi.

b) Interfaol metodlar asosida mashg'ulotlar tashkil etish

Zamonaviy darslar o'quvchini faollikka chorlashi lozim. Bunda quydagilar yordam beradi:

"Xato top!" mashqi: matndan xatolarni aniqlash va izohlash.

"To'g'ri-ni noto'g'ridan ajrat": ikki versiyada berilgan matndan to'g'risini topish.

Rolli o'yinlar: tahrirchi va muallif rollarini o'ynash orqali yozma madaniyatga chuqur kirib borish.

c) Portfolio metodi

O'quvchi yozma ishlari muntazam yig'ilib, birgalikda tahlil qilinadi. Bu jarayonda:

Xatolar takroriyligiga e'tibor qaratiladi;

Har oyda umumiyl natijalar bo'yicha o'quvchining rivojlanish darajasi aniqlanadi;

O'quvchi o'z ustida ishslashga undaladi.

d) Diagnostik diktantlar

O'quvchilarning xatolarga moyilligini aniqlashda maxsus tayyorlangan matnlar asosida diktantlar o'tkaziladi. Bu matnlar quydagilarga xizmat qiladi:

Aniq bir grammatika yoki orfografik muammoni ochib berish;

O'quvchining xatolarga moyilligini ko'rsatish;

Diktantdan so'ng xatolar ustida tahlil ishlari olib borish.

e) Riflik yozuvlar (refleksiya)

Har yozma ish so'nggida o'quvchidan qisqacha fikr yozish so'raladi:

Nimalar o'xshadi?

Qaysi so'zlar yoki gap tuzishda qiyaldim?

Nima o'rganildi?

Nimalar o'xshadi?	Qaysi so'zlar yoki gap tuzishda qiyaldim?	Nima o'rganildi?

Bu esa o'quvchini yozgan ishiga ongli ravishda yondashishga o'rgatadi.

XULOSA

Yozma nutq – o'quvchining tafakkur darajasi, tilni egallash ko'nikmasi, grammatik bilimlari va uslubiy saviyasini namoyon etuvchi muhim ko'nikmadir. Yozma ishlar orqali o'quvchilarning nafaqat grammatik bilimlari, balki mustaqil fikrashi, o'z fikrini ifodalash madaniyati, mantiqiy izchillik va uslubiy tozalikka bo'lgan munosabati shakllanadi.

Maqlolada bayon etilganidek, yozma ishlarda ko'p uchraydigan xatolar – orfografik, grammatik, punktuatsion, uslubiy va mantiqiy xatolar – o'quvchilarda yozma savodxonlik ko'nikmalarini yetarli shakllanmaganini ko'rsatadi. Bunday xatolarni bartaraf etish o'qituvchidan chuqur tahlil, individual yondashuv, turli darajadagi topshiriqlar va zamonaviy metodlardan foydalanishni talab etadi.

Xatolarni kamaytirish uchun quyidagilar zarur:

Darslarda interfaol metodlardan, xususan, tahliliy diktantlar, "Xato top", "To'g'risini top" kabi mashqlardan muntazam foydalanish;

O'quvchilarning yozma ishlari ustidan tizimli tahlil olib borish, har bir o'quvchining shaxsiy xatolar portfeli (diagnostik kartasi)ni yuritish;

Savodxonlikni rivojlantirish uchun o'quvchilarni muntazam kitob o'qishga rag'batlantirish;

Yozma ishdan so'ng refleksiya yozdirish orqali o'quvchining o'z xatolari ustida fikr yuritishini rag'batlantirish.

Shuningdek, yozma ishlardagi xatolar ustida ishslashda nazorat va tahlil jarayonini yagona tizimga aylantirish, bu borada ota-onalar va sinfdan tashqari ta'lim shakllari bilan hamkorlik qilish katta samara beradi. Shundagina o'quvchilarda nafaqat til qoidalarini bilish, balki ularni to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasi shakllanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yozma ishlardagi xatolarni aniqlash va bartaraf etish — bu faqatgina tuzatish emas, balki o'quvchining fikrlash, anglash va o'z ustida ishslash madaniyatini shakllantirish jarayonidir. Shu sababli, bu jarayonga metodik asoslangan, izchil va bosqichma-bosqich yondashish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 380 bet.
2. D.N. Yuldasheva. “ O'zbek tilini o'qitish metodikasi”. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2021. – 424 b.
3. B.To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova.O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.
4. G.A. Asilova. Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma.– T., 2020. – 128 b.